
ALIMENT TO'LOVCHINI CHETGA CHIQISHI UCHUN QO'YILGAN CHEKLOVNI QANDAY QILIB OLIB TASHLASH MUMKIN

SAVOL:

Aliment to'lovchi chetga chiqishi uchun aliment to'lovini qancha qismini to'lasa unga qo'yilgan taqiq olib tashlanishi mumkin ?

JAVOB:

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 6 oktyabr kungi 808-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan, alimentlarni oldindan to'lash bola voyaga etguniga qadar har qanday davr uchun, biroq besh yildan kam bo'lmagan muddatga amalga oshiriladi.

Agar aliment to'lovchining farzandi 18 yoshga to'lishi uchun 5 yildan kam muddat qolgan bo'lsa o'sha qolgan muddat uchun aliment qarzdorligini bir yo'la to'laydi.

Demak, taqiq qo'yilgan aliment to'lovchi kelasi 5 yillik aliment pulini birdaniga to'lasa unga qo'yilgan taqiq olib tashlanishi mumkin.

MIB Quvasoy shahar bo'limi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-12-19 14:47:54